



Shahnoza AHMEDOVA

SIRLI SAPO

Shahnoza AHMEDOVA

SIRLI SADO

Qatralar, she'rlar

Toshkent
«Yangi kitob»
2016

UO‘K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O‘)7

A98

Ahmedova, Shahnoza

Sirli sado [Matn]: qatralar, she‘rlar / Sh.Ahmedova. –
Toshkent: «Yangi kitob», 2016. – 96 b.

UO‘K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O‘)7

ISBN 978-9943-4555-4-2

*Ushbu kitob yosh shoiraning turkum she‘rlaridan sara-
lab olindi. Shahnoza Vatan mehrini, ona taftini o‘ziga xos
ohangda kuylaydi. Misralarda ifodalangan nozik tuyg‘ular
qalb sadosidan darak beradi. Vatan ozodligi va obodligini
tuygan ko‘ngil baxtdan sarxush bo‘lishi ayon. Zotan, in-
son hamisha, har doim ona yurt mehridan quvvat oladi.
Kimnidir sog‘intirib, kimnidir sog‘inib yashaydi. Go‘zal
tuyg‘ular, inja ohanglar bilan uchrashuv siz-u bizga mubo-
rak bo‘lsin.*

Mas‘ul muharrir:

Abdurahmon Jo‘ra

Taqrizchi:

Nurulla Ostonov,

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

© Shahnoza Ahmedova

«Sirli sado».

© «Yangi kitob», 2016.

ISBN 978-9943-4555-4-2

— Qatralar —

TULKICHILIK

O'rmonda shohlar tez-tez almashinib turardi. Har gal hukmdor yangi bo'lganda tulki dumini likillatib hol-ahvol so'rashga kirardi. Yangi taxt egasiga eski shohni va ko'ziga yomon ko'ringanlarni "chaqar", o'zining qabih niyatlarini makr-u hiyla ortiga mohirona berkitardi.

Hiylagarning nayranglari oqibatida jabr ko'rganlar uni "bir umr dumingni likillatib, ikkiyuzlamachilikda yashagin va hech qachon halovat topma", deb qar-g'ardilar. Ko'plab jafokashlarning duosi ijobat bo'lib, o'shandan buyon tulki halovat va samimiylikdan mosuvo bo'libdi. Uning yurishi, turishi, kulgilari-da soxtalik timsoliga aylandi. Insonlar o'zligini anglamagan, mansab, mol-u davlatni qadr-u qimmatidan ustun qo'ygan kimsalarni tulkiga qiyos qiladigan bo'ldilar.

Nochorlarga chora berguvchi Yaratgan hech bir insonni samimiyatdan ayro qilmasin. Zero, tulki bo'lib yashash ayanchli, og'ir...

VATAN

Tug'ildik. Shu Zaminning aziz tuprog'iga kindik qonimiz to'kildi. Hayotimizning ilk lahzalarida shu makon havosidan to'yib simirdik va dunyoga kelganimizni bildirib qo'yish uchun olamga jar solib "inga"ladik. Bu qutlug' makon bizni borimizcha qabul qildi. Unga foydamiz tegsa-tegmasa "bolam" dedi, bag'riga bosdi. U xuddi onajonimizdek mehribon, mehridaryo va yana...

Yana Vatan ham mehrga tashna. Agar biz yaxshi farzand bo'lsak, shu muqaddas tuproq haqqi, o'zimizni, o'zligimizni asraymiz. Ya'nikim, Vatanimiz – ona yurtimizni asrab-avaylaymiz.

Bu yurt ota-bobolarimizdan meros. Bizdan esa farzandlarimizga gul-gul yashnab, hurlik va tinchlik barqaror bo'lgan zamin meros bo'lib qolmoqligi shart.

Ezgu maqsadlarimiz yo'lida Vatan ravnaqiga hissa qo'shib, unga munosib farzand bo'lish har birimizga nasib etsin.

*Vatan, bahorlarim manzili – sensan,
Vatan, diydorlarim manzili – sensan.
Senday jannatmonand bormi dunyoda?!
Vatan! She'rlarimning mazmuni – sensan!*

LOCHIN

Baland tog'lar uzra parvoz etayotgan lochin judayam mag'rur. Bu mag'rurlik, o'ziga bo'lgan ishonchni har bir xatti-harakatidan his qilib, unga havas qilasiz. Uning ko'zlari uzroqlarni ko'ra oladi. Tumshug'i o'tkir. U hamisha sergak. O'z yurtini, elini qo'riqlayotgan askarga o'xshataman – lochinni.

GUL

O‘z o‘rnida ko‘rkam, go‘zal edi. Uning chiroyidan, xushhid iforidan ko‘ngillar orom topardi. Uning vasfini kuylab bulbul har tong xonish qilardi. Ko‘ngillar ikki dil dostonidan bahra topardi. Go‘yoki chor atrofga ishq ifori, mehr nuri taralayotgandek. Gulning ta‘rifini eshitgan Changalzor shahzodasidan unga sovchi keldi.

Gulni uzib Changalzorlar yurtiga berib yubordilar. U qovjirab-so‘ldi. Gul o‘lib qoldi.

Esiz... Afsus...

BAXT

Baxt nima aslida? O‘z oilang, ota-onang, aka-ukang, opa-singling, bobolar-u momolaring va yana boshqa jigarlaring bag‘rida bo‘lish baxt emasmi? Vatanning bo‘lsa – xuddi mening O‘zbekistonimdek, hur, tinch, obod bo‘lsa. Baxtlisan, yurtboshing bo‘lsa – Islom bobomdek. Barcha farzandlarini birdek o‘ylab, cheksiz imkonlar bersa – xuddi biznikidek. Demak, baxtlisan...

Baxt – oilang bag‘rida, ona yurtida yashash. Baxt – musaffo osmonga termilib, kelajak haqida o‘ylash, orzu qila olishdir.

Men baxtliman! Biz baxtlimiz! Baxtimizga ko‘z tegmasin!

IBRAT

Ertalab turib yuz-qo'limni yuvdim-da, quyoshning chiqishini tomosha qilib o'tirdim. Keyin gul-u rayhonlarga tikilib bir olam zavq oldim.

O'zidan bir necha bor katta bug'doy boshog'ini sudrayotgan chumoliga nogoh ko'zim tushdi. U judayam qiynalib, ming bir azobda boshog'ni sudrar ekan, mening rahmim keldi.

Yaxshilab razm solsam, chumoli bu boshog'ni holsizlanib emas, g'ayrat bilan sudrab ketyapti. Uni iniga olib borishni maqsad qilgan. Chumoli maqsad sari intilyapti. Hatto kichik chumolida ham katta yuk, ulkan maqsad bor!

Men-chi? Men ham o'z oldimga katta maqsadlar qo'yib, el-u yurt koriga yaraydigan, elim, yurtimning dovrug'ini olamga yoyadigan jurnalist bo'lishni dilimga tugdim. Buning uchun ko'proq o'qishim, izlanishim, Yurtboshimiz ishonchini oqlashim, ota-onam orzusini amalga oshirishim shart.

Men bu yo'lda chumolidan ibrat oldim..

BAXTIM, BAXTIYORIM – ONAJON VATAN

Navro‘z – mustaqilligimiz bizga qaytargan, ajdodlarimizdan meros qolgan betakror bahoriy ayyom. Ana shu ulug‘ bayram barcha go‘shalarda, maktab-u kollejlarda, mahalla-yu tashkilotlar va hatto bog‘chalar-da ham jajji bolajonlar bilan nishonlanadi. Milliy urfodatlarimiz, o‘yinlarimizni o‘z ichiga olgan Navro‘zda milliy taomimiz sumalakni momojon-u onajonlarimiz pishiradilar. Bizning Dashnobodimizda “Degi Darveshon”, “Ko‘pkari”, “Sumalak sayli”, “Lola sayli”, “Navro‘z shodiyonalari” kabi milliylikka yo‘g‘rilgan tadbirlar o‘tkaziladi.

Albatta, bayramoldi hashari uyushtirilib, hamma joylar tozalanadi, obodonlashtiriladi. Tomorqa, bog‘, qir-u adirlar bahorgi ekinga tayyorlanib, umid bilan yerga urug‘ qadaladi. Sayllar tashkillashtirilib, xalqqa osh beriladi.

*Dillarni shod etgaylar,
Yurtni obod etgaylar,
O‘tganni yod etgaylar,
Navro‘z kelgan pallada.*

BEG‘UBOR HADYA

Qor – kumush qishning beg‘ubor va go‘zal hadyasi. Qorning oppoq ramziy naqshlari dillarga zavq bag‘ishlaydi. Fasllar malikasi, oq libosli qishning faqat oppoq qori bilan chinakam go‘zallik kasb etishini bolalar yaqqol his etadi. Ehtimol shu bois onalarining tanbehiga qaramay, ko‘chadan beri kelmaydi. Qor – zamin uzra to‘shalgan oppoq va zarrin mo‘jiza.

Qorbo‘ron o‘ynash zavqi har bir bola, yigit-qizga begona emas. Ular bir-birlariga qor otib, ezgu tilaklar bildirgandek taassurot uyg‘otishadi.

Ko‘rkam yurtimizga kumush qishning kelishi o‘zga-cha chiroy bag‘ishlaydi.

Otajonim qorga dillarni poklaguvchi, onajonim esa beg‘uborlik va ezgulik timsoli deb ta’rif beradilar.

Ona yurtimning har bir qarich yeriga kumush qor zarralari tusha boshladi. Mana, yana qor yog‘di. Oppoq, beg‘ubor, zarrin, kumush...

— *She'rlar* —

SENGA SADOQATLIMAN

Baxtim, baxtiyorim – onajon Vatan,
Qutlug' hur diyorim – guliston Vatan.
Sen onamdek go'zal, saxovatlisan,
Sen otamdek aziz, salobatlisani.

Erka qiz bo'libon xizimating qilay,
Qadri osmonimsan, qadringni bilay.
Munosib farzandman, qalbi olovman,
Senga mehribonman, sadoqatliman.

“KAMOLOT” QO‘SHIG‘I

Biz, yoshlar birlashamiz,
“Kamolot” qanotida.
Shijoati bilingay
Qo'shig'i, bayotida.

Mening Islom bobom bor,
Shuning uchun omad yor!
Maqsadi ilm-u hunar
Orzu-umid ham bisyor.

“Kamolot”ning yoshlari,
Dunyo bilan bo'ylashgan.
Mag'rur, zukko avlodmiz
Samo bilan sirlashgan.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1514> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1514> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1514>